ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Murodova Dilrabo Shomurodovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti ,t.f.f.d.(PhD)

Boymuratova Marjona Tura qizi

Buxoro davlat universiteti talabasi

ABU ALI IBN SINO FALSAFASIDA ILM VA AXLOQ UYG‘UNLIGI, BILISH NAZARIYASI .

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq falsafasining yirik namoyandasi Abu Ali ibn Sinoning ilmiy-falsafiy qarashlari asosida ilm va axloq masalalarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda allomaning bilish nazariyasi, aql va ruh haqidagi qarashlari hamda axloqiy fazilatlar tizimi chuqur o‘rganiladi. Shuningdek, uning „Kitob ash-Shifo” , „ Al-Ishorat va at-tanbihot” va „Donishnoma” asarlaridagi ilmiy g‘oyalar tahlil etilib, ilm va axloq uyg‘unligining inson kamolotidagi o‘rni ochib beriladi.

Maqolada, shuningdek, Abu Nasr Farobiy ta’limoti bilan uzviylik masalasi ham ko‘rib chiqilib, Ibn Sino falsafasining rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Muallif tomonidan ilm va axloqning uyg‘unligi barkamol shaxsni shakllantirishning muhim omili ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy jamiyatda ma’naviy tarbiya, ilmiy tafakkur va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Abu Ali ibn Sino, ilm, axloq, aql, bilish nazariyasi, komil inson, ruh, falsafa, vujudi vojib, vujudi mumkin, Sharq falsafasi, Abu Nasr Farobiy, mantiq, ma’naviyat, tafakkur

KIRISH

Sharq falsafiy tafakkuri tarixida ilm va axloq masalalari markaziy o‘rin egallaydi. Inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy yuksalish muammolari qadimdan mutafakkirlar e’tiborida bo‘lib kelgan. Ayniqsa, buyuk alloma Abu Ali ibn Sino ta’limotida ilm va axloq o‘zaro uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Uning falsafiy merosida aql insonni komillikka eltuvchi asosiy qudrat sifatida qaralib, axloq esa nafsni boshqarish va fazilatlarni shakllantirish jarayoni bilan bog‘lanadi.

Bugungi globallashuv va ma’naviy tahdidlar kuchaygan davrda ilm bilan axloq uyg‘unligini ta’minlash masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda biz buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy merosiga tayanamiz, chunki ular yaratgan bebaho asarlar bugungi taraqqiyotimiz uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi”**[1:45]**Mazkur fikr Ibn Sino kabi allomalar merosini zamonaviy ilmiy-falsafiy tahlil qilish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ibn Sinoning “Kitob ash-Shifo”, “Al-Ishorat va at-tanbihot” va “Donishnoma” asarlarida ilmning mohiyati, aql darajalari, nafs tarbiyasi hamda axloqiy fazilatlar tizimi chuqur falsafiy asosda bayon etilgan. Bundan tashqari uning badiiy mazmundagi falsafiy asarlari haqida ham bayon etilgan.Mutafakkir nazarida ilm — insonni haqiqatga yetaklovchi vosita, axloq esa uni

komillikka olib boruvchi ichki mezondir. Ilm va axloqning uyg‘unligi esa barkamol shaxsni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — Ibn Sino falsafasida ilm va axloq masalalarining o‘zaro bog‘liqligini tarixiy-falsafiy hamda manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida allomaning asosiy asarlariga tayangan holda, uning bilish nazariyasi, axloqiy fazilatlar konsepsiyasi va komil inson haqidagi qarashlari yoritiladi.O’rta asrlar davrida ijod qilib o’z nomini abadiylikka muhrlagan olimlar qatorida Ibn Sinoni ham birinchilardan bo’lib tilga olamiz .Ibn Sino nafaqat o’z davrining buyuk allomasi balki hozirgi kunda ham buyuk alloma sifatida xotirlanadi .Inson bu dunyodan vaqti kelganda vafot etishi mumkin ,lekin u tomonidan yozib qoldirilgan ma’naviy meros yo’q bo’lib ketmaydi.Abu Ali Ibn Sinoni Ibn Sino qilgan uning ,,Tib qonunlari” asaridir .Biz Ibn Sinoni faqatgina tabobat ilmining sultoni deb bilamiz lekin aslida Ibn Sino serqirra ijodkor bo’lgan ,qomusiy olim bo’lgan .Ibn Sino ham o’z davri uchun o’z qarashlaridan kelib chiqib falsafiy asarlar ham yozgan .Ibn Sino o’z davrining buyuk allomalaridan biri bo’lgan Abu Nasr Farobiyning falsafiy g’oyalarini ham davom ettirgan ,ularni metafizik va psixologik jihatdan mukammallashtirgan.

ASOSIY QISM

Sharq olamidagi buyuk qomusiy olimlardan Abu Ali ibn Sino (to‘liq ismi: Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino al-Balxiy, forscha: ابو علی حسین بن عبدالله بن سینا; Movarounnahrlik olim, taxminan 980-yil, AfshonaBuxoro, Somoniylar davlati – 1037-yil 18-iyun, Hamadon) — qomusiy olim, tabib va faylasuf.Ibn Sino nafaqat Sharq olamida balki ,G’arb olamida ham ma’lum va mashhurdir.Uning ilmiy merosiga nazar tashlaydigan bo’lsak ,u birgina fan sohasida emas balki ko’pgina sohalarda samarali ijod qilgan.Ibn Sino al-Balxiy o’z ijodida falsafiy g’oyalarga ham alohida o’rin ajratgan.Abu Ali ibn Sino o’z falsafasida borliqni ikki turga bo’ladi: vujudi vojib (zaruriy vujud)va vujudi mumkin (imkoniy vujud).Vujudi vojib bu -Xudo ,vujudi mumkin esa undan kelib chiqadigan olam va undagi narsalar.U shu kabi fikrlari bilan olamdagi yagona yaratuvchi Alloh ekanligini,qolgan barcha narsalar u tomonidan yaratilganligini tushuntiradi ,hattoki Ibn Sino ruboiysida ham yuqoridagi fikrlarni keltiradi

Haq joni jahonningu ,jahon bo’lsa-badan ,

Bu tan(ning) sezish hissi malak jinsi bilan.

Bor jonsizu jonli mavjudot a’zosidir,

Tavhid shu -yu ,qolgan barisi hiyla ekan.

Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy fikrlari asosan uning to’rt yirik asarida-,,Donishnoma”, ,,Kitob ash -shifo” , ,,Kitob an -najot” va ,,Kitob al -ishorat” da bayon etilgan.**[2:133]**Ibn Sinoning badiiy mazmundagi falsafiy asarlari “Hayy ib Yaqzon “,”Tayr qissasi “,”Salomon va Ibsol”dan iboratdir.

Inson bilimlari narsalarni bilish yordamida vujudga keladi.

Bilish hissiy bilish va tushunchalar yordamida fikrlashdan tashkil

topadi. «Sezish, – deb yozgan u, – bu shunday ta’sirki, u tashqi

narsalarning o‘zi bo‘lmay, balki bizning hislarimizda vujudga keladi.

His moddiy obrazning oynasi bo‘lib, moddiy shakllarning bo‘yi, eni

bilan birga ifodalanganligi sababli, ularni inson moddiy asossiz

in’ikos eta olmaydi va jismlarni bilolmaydi». **[3:111]**

Ibn Sino materiyani eng sodda bo’linmas ,to’rt unsur :havo,olov ,suv va tuproqdan iborat deb hisoblagan.Uning fikricha shu to’rt unsur abadiy yo’qolmaydi.Uning bu qarashlari zardushtiylikning to’rt muqaddas ma’vo haqidagi qarashlariga mos edi**[4:22]**.Ibn Sino o’z falsafiy qarashlarida borliqni tushuntirishga harakat qilgan ,Farobiyning asarlariga ham murojaat etgan.Ibn Sino falsafiy asarlarining eng yirigi “Ash -Shifo “bo’lib,uning mantiq qismi 9 bo’lakdan iborat va uning har biri o’z holicha alohida bir kitobdir.Bular quyidagicha:

1. Al Madhal-mantiqqa kirishdir.

2 Al Maqulot-kategoriyalar .

3. AL Iborat-interpretatsiya.

4 AL Qiyos-sillogizm .

5.ALBurhon -isbot ,dalil.

6.AL Jadal-tortishuv,dialektika.

7 AS Safsata-sofistika.

8.AL Xitoba-ritorika.

9.Ash She’r-poetika. **[5:173,174]**

Ibn Sino falsafiy mazmundagi asarlarini o’n yetti yoshigacha ham yozgan,u yashagan davrdagi Somoniylar hukmdori Nuh Ibn Mansur (976-997)ga bag’ishlab “Hadiyat ar-rais”falsafiy risolasini yozgan.Ibn Sino o’z ilmiy qarashlarida ruh haqida ham o’z fikrlarini keltirib o’tadi.Ibn Sinoning fikriga ko’ra,insonning aqlli kuchi na mavhum kuchga na mavhum burchga ega,aksincha,uning ruhidagi har qamday bilim yoki fikr oliy mehribonlikning aksidir.Ustozdan o’rnak olgan shogirddek yoki sevgilisi bilan birlashmoqchi bo’lgan oshiqdek ,ruh o’zi paydo bo’lgan ong bilan birlashishga moyil.**[6:7,8]**

Mantiqiy tafakkur tarzi asosida ibn Sino insonni intellektual

mavjudot ekanligini ta’kidlab o‘tgan. Inson ezgulikni yovuzlikdan,

intellektual yetuklikni yolg‘on-yashiq, adashislidan, do'stni dushmandan

ajrata oladi. Aql - donishmandlik tarozisidir. Bilish jarayonida sezgi

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

a’zolari va ularga tayangan mushohada aqlning eng yaqin ko‘makchilari vazifasini bajaradi. Mantiq fani vositasida inson bilmagan narsasini oldin bilib olgan narsasi orqali bilib oladi, to‘g‘ri tafakkur yuritish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Jonli mushohadasiz voqelikni o‘zlashtirib bo‘lmaydi, lekin sezgilar dalolatiga asoslangan empirike tushunchalar, tasawurlar, ko‘p hollarda, hodisalar mohiyatini ochib berishga yordam beradi.

Ibn Sino o’zining “Ash – Shifo” asarining “Ilohiyot” (Mahluqotlar va yaratish to’g’risida. Beshinchi sharh) qismida keltirishicha:“Insonlar tasavvurida maxluqot, ya’ni yaratilgan narsalar yaratuvchi deb atalmish narsa bilan bog’liqligi muhim ahamiyatga ega, chunki yaratuvchi maxluqotlarni yaratadi. Yaratuvchi yaratadi, bunyod etadi, ishlab chiqaradi, maxluqot(yaratilgan) esa yaratiladi, bunyod etiladi, ishlab chiqariladi. Bundan kelib chiqadiki, avval mavjud bo’lmagan narsa mavjud bo’lgan narsa tufayli shakllanadi. Ular aytadilar: Maxluqot yaratilganidan so’ng, yaratuvchisiga ehtiyoji qolmaydi, hatto yaratuvchi mahv etilsa ham maxluqot yashashda davom etadi, xuddi quruvchi yo’qolsa ham bino saqlanib qolgandek.

Aksariyat kishilar quyidagilarni ta’kidlaydilar:

Agar Yaratuvchi Zot yo’qolib qolgan taqdirda ham dunyoning mavjudligiga zarar yetmaydi. Dunyo faqat shakllanish jarayonida, ya’ni y’oqlik borliqqa, reallikka aylanayotganligida Yaratuvchi Zotga ehtiyoj sezadi. Dunyo qachon Yaratuvchi Zotga ehtiyoj sezish uchun shakllanadi va yo’qlikdan borliqqa, reallikka aylanadi?

Ibn Sino esa quyidagilarni bayon etadi:

“Ular aytadilar:deydi, o’zining “Ishorat va Tanbihot” asarida – “ Agar dunyo mavjudligi uchun yaratilgan zotga ehtiyoj sezsa, har bir mavjudot shu jumladan yaratuvchi zot ham boshqa bir yaratuvchiga ehtiyoj sezadi va bu hol cheksiz davom

etadi. Biz ushbu muammoning mohiyatini tushuntiramiz va qanday xulosaga kelishni

ko’rsatamiz.**[7:19]**Har bir mahluqot yaratilishiga (shakllanishiga) qadar mumkinul

vujud bo’lgan va uning yaratilish ehtimoli reallikka aylangan. Lekin ehtimollik

yaratguvchi zotning boshqa jismlar ustidan qudratini ifodalab berolmaydi,

ehtimolsizlik o’z-o’zicha bo’la olmaydi. Jismning mavjudlik ehtimoli yaratuvchining

narsa ustidan qudratidan boshqa tushunchadir. Mavjudlikning ehtimoligi o’z-o’zidan

g’ayri aqliy bo’lib, uning mavjudligi substratda namoyon bo’lmaydi, aksincha u

o’zaro munosabatda bo’lib, substraktga ehtiyoj sezadi. Yaratiluvchi narsalar

mavjudlik va substrakt narsalar layoqatidan oldin bo’ladi. Ibn Sino ko‘p jihatdan Forobiy falsafasini davom ettirib, uni yanada rivojlantirgan.Misol uchun:Forobiy borliqning manbai birinchi sabab — Olloh ekanini ta’kidlagan.

Ibn Sino bu fikrni yanada rivojlantirib:

“vojibul-vujud” (zarur mavjudot) va

“mumkinul-vujud” (mumkin mavjudot)

tushunchalarini ishlab chiqdi. Bu metafizik nazariya keyinchalik Sharq falsafasida juda muhim o‘rin egallagan.Forobiy inson kamolotida aqlning asosiy o‘rni borligini ta’kidlagan.

Ibn Sino esa bu fikrni rivojlantirib:

bilish jarayonini hissiy bilish va aqliy bilish bosqichlari orqali tushuntirdi;

inson aqli faol aql bilan bog‘lanib mukammallikka erishadi degan g‘oyani ilgari surdi.Forobiy mantiqni to‘g‘ri fikrlash vositasi deb qaragan.

Ibn Sino esa:

mantiqni yanada kengroq tizimga solgan,

uni falsafa va ilmiy bilishning muhim usuli sifatida rivojlantirgan.Forobiy o‘zining Fozil odamlar shahri asarida ideal jamiyat g‘oyasini ilgari surgan.

Ibn Sino ham jamiyat boshqaruvida:

ilmli va axloqli rahbar,

adolat va ma’naviylik muhim deb hisoblagan.Ibn Sino Forobiyning falsafiy merosini qabul qilibgina qolmay, uni yanada chuqurlashtirib, mukammal falsafiy tizimga aylantirdi. Shu sababli ko‘plab olimlar Ibn Sinoni Forobiy falsafasining eng yirik davomchisi deb hisoblaydi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, Abu Ali ibn Sino falsafasida ilm va axloq masalalari o‘zaro chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi. Alloma nazarida insonning haqiqiy kamoloti faqat ilm egallash bilan emas, balki yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish orqali namoyon bo‘ladi. Uning bilish nazariyasida sezgi va aql o‘zaro uyg‘un holda faoliyat yuritib, insonni haqiqatni anglash sari yetaklaydi.

Ibn Sino tomonidan ilgari surilgan “vujudi vojib” va “vujudi mumkin” tushunchalari orqali borliqning mohiyati chuqur falsafiy asosda izohlanadi. Shuningdek, uning ruh, aql va mantiq haqidagi qarashlari insonni intellektual va ma’naviy jihatdan kamolga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan u Abu Nasr Forobiyning falsafiy g‘oyalarini davom ettirib, ularni yanada rivojlantirgan.

Bugungi globallashuv sharoitida ilm va axloq uyg‘unligini ta’minlash masalasi nihoyatda dolzarbdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Ibn Sino merosi nafaqat tarixiy-falsafiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi. Demak, alloma ta’limotini chuqur o‘rganish va uni bugungi kun talablari asosida talqin etish ilmiy va ma’naviy taraqqiyotning muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.

2.A.A Qodirov,U T.Soipov. „Abu Ali Ibn Sino buyuk medik olim “.- Toshkent „MEDITSINA”,1980.

3.Jumayeva.N.A.Sharq allomalarining ilmiy merosi[Matn]:o’quv qo’llanma/– Buxoro:„Sadriddin Salim Buxoriy”,Durdona nashriyoti,2022.

4..Azimxo’ja Otaxo’jayev “Abu Ali Ibn Sino”-Toshkent:Abu Matbuot-konsalt,2011.

5A.Irisov „Abu Ali Ibn Sino hayoti va ijodiy merosi”-Toshkent O’zb SSR „Fan”-1980 .

6.Bo‘riyev I.I. Ibn Sino qarashlarida ruh (qalb) tushunchasining tasavvufiy xususiyati // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – 3(1/2).

7.Jurayev Sh.S. Abu Ali ibn Sino va uning falsafiy qarashlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – 2(4/2).